

*Islom KARIMOV*

**AMALGA OSHIRAYOTGAN  
ISLOHOTLARIMIZNI  
YANADA CHUQURLASHTIRISH VA  
FUQAROLIK JAMIYATI QURISH –  
YORUG‘ KELAJAGIMIZNING  
ASOSIY OMILIDIR**

*O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining  
21 yilligiga bag‘ishlangan tantanali  
marosimdagi ma‘ruza*

*2013-yil 7-dekabr*

TOSHKENT — «O‘ZBEKISTON» — 2013

UDK: 323.1(575.1)

KBK 66.3(50') - *Улуу сүүсэй*

K 25

HO 42319  
081

ISBN 978-9943-01-993-5

2014/12 A 9438	Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston MK
----------------------	--

© «O'ZBEKISTON» NMIU, 2013

Qadrli do'stlar!

Avvalo, mana shu hashamatli va betakror binoda siz, azizlarim bilan ko'rishganimdan xursand bo'lganimni, o'zimning chuqur hurmatim va mehrimni bildirish – men uchun katta baxt, desam, qalbimda, yuragimda bo'lgan gapni aytgan bo'laman.

Bugungi tantanali majlisimizning maqsad-muddaosi – hayotimiz qomusi bo'lmish Konstitutsiyamizning 21 yilligini nishonlash, Asosiy Qonunimiz belgilab bergan yuksak maqsadlarni amalga oshirishda, yurtimizda yangi jamiyat, yangi hayot qurishda erishgan yutuqlarimiz va oldimizda turgan vazifalarni aniqlab olishdan iboratdir.

Haqiqatan ham, 1992-yil 8-dekabrda qabul qilingan Konstitutsiyamiz O'zbekiston tarixida, uzoq, davomli maqsad va vazifalarimizni aniq belgilab berishda o'zining puxta o'ylangan tamoyil va qoidalari bilan ishonchli va hal qiluvchi omil bo'ldi, deb ta'kidlashga barcha-barcha asoslarimiz bor.

Konstitutsiyamiz negiziga qo'yilgan talab va qoidalarga to'liq mos keladigan, dunyo hamjamiyatida «o'zbek modeli» deb nom qozongan, mamlakatimizni isloh etish va modernizatsiya qilish yo'li naqadar to'g'ri ekanini bugun hayotimizning o'zi tasdiqlab bermoqda.

Ushbu modelning mazmun-mohiyati mashhur besh tamoyilda mujassam topgani barchamizga yaxshi ma'lum.

Bu tamoyillar iqtisodiyotni mafkuradan to'liq xoli qilish, qonun ustuvorligini ta'minlash, davlatning bosh islohotchi sifatidagi boshqaruvchilik rolini tan olish, mamlakatimizning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda, kuchli ijtimoiy siyosat yuritish, shuningdek, siyosiy va iqtisodiy islohotlarni bosqichma-bosqich amalga oshirishdan iborat ekani bilan alohida ajralib turadi.

Shular haqida gapirganda, muhim bir masalaga e'tiboringizni qaratishni istardim.

Demokratik jarayonlarni sun'iy ravishda tezlashtirish, shoshmashosharlik, turli inqilobiy to'ntarishlar yo'li qanday ayanchli oqibatlarga olib kelishi mumkinligini hayotning o'zi barcha misollarda tasdiqlab berayotgani bugun hammamizga ayon.

**Faqatgina biz tanlagan bosqichma-bosqich, tadrijiy rivojlanish yo'li xalqimiz ko'zlagan ezgu niyatlarga erishishga, zamonaviy demokratik talablarga javob beradigan davlat, inson manfaatlari, huquq va erkinliklari eng oliy qadriyat bo'lgan, qonun ustuvorligini ta'minlaydigan jamiyat barpo etishga olib kelishi muqarrar. Buni hayotimizning o'zi bugun isbotlab bermoqda.**

Siyosiy islohotlarimiz negizida turgan demokratik davlat qurishning eng asosiy talabi bo'lmish hokimiyatning qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatiga bo'linishi, ular o'rtasidagi munosabatlarda o'zaro tiyib turish va manfaatlar muvozanatini ta'minlaydigan tizim barpo etganimiz alohida e'tiborga sazovordir.

Iqtisodiyotimizda tub demokratik va bozor islohotlarining amalga oshirilayotgani, xususiy mulkka keng yo'l ochib berganimiz, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, qishloq xo'jaligi sohasida hal qiluvchi kuchga aylanib

borayotgan fermerlikni rivojlantirish uchun qulay sharoitlar, imtiyoz va preferensiyalar yaratish, xususiy mulk va mulkdorlar huquqlarini himoya qilish bo'yicha ko'plab qonun hujjatlari qabul qilingani muhim prinsipial ahamiyatga ega bo'ldi.

Shu borada jamiyatimizni erkinlashtirish, biznes yuritish uchun huquqiy va qonunchilik bazasi hamda zarur sharoitlarning muntazam ravishda takomillashtirib borilgani iqtisodiyotimizni izchil va barqaror rivojlantirishda, aholimizning hayot darajasi va sifatini yuksaltirishda katta o'rin tutganini qayd etish lozim.

Biz mamlakatimizda kichik biznes va tadbirkorlikning taraqqiyoti, xususiy mulkning jadal rivoji uchun g'oyat qulay va ustuvor sharoitlarni yaratib berar ekanmiz, shunga e'tiboringizni alohida jalb etmoqchiman, avvalo, shularning hisobidan iqtisodiyotimizning o'sish sur'atlarini tezlashtirish, aholimizning ish bilan band bo'lishi va daromad topishi bilan bir qatorda, biz uchun yangi bo'lgan, demokratik islohotlarning asosiy tayanchi va harakatlantiruvchi kuchi – o'rta sinfni shakllantirishni ko'zda tutamiz.

O'z-o'zidan ayonki, tobora chuqurlashib borayotgan islohotlar natijasida erishiladigan o'ta muhim o'zgarishlar hech qachon bir kunda, kimningdir buyrug'i yoki xohishi hisobidan bo'lmaydi. **Buning uchun albatta vaqt kerak, eng asosiysi – bu islohotlarning mazmuni va maqsadlarini jamiyatimiz, xalqimiz chuqur anglab olishi va qo'llab-quvvatlashi hal qiluvchi ahamiyatga ega.**

O'zingiz ayting, aziz do'stlar, agar biz shuncha vaqt, kuch-quvvat sarflab amalga oshirayotgan islohotlarimizning maqsadi va mazmunini xalqimiz tushunmasa, jamoat-

chiligimiz qo'llab-quvvatlamasa, bunday islohotlar quruq gapga aylanib qolmaydimi? Bunday islohotlar bilan biron-bir amaliy natijaga erishib bo'ladimi?

Takror aytishga to'g'ri keladi – faqatgina xalqimizning qo'llab-quvvatlashi har qanday islohotlarga kuch beradi.

Jamiyatimizni isloh qilish borasidagi maqsad va vazifalarimizning ma'no-mohiyatini ana shunday tushunishdan kelib chiqib bayon etilgan «Islohot – islohot uchun emas, avvalo, inson uchun», «Yangi uyni qurmasdan turib eskisini buzmag» degan mashhur shiorlar el-yurtimiz o'rtasida keng yoyilib, qo'llab-quvvatlanayotgani bejiz emas, albatta.

Bir paytlar, bu shiorlar hayotimizdan endigina o'rin topayotgan bir sharoitda kimdir balki bu islohotlarning ma'no-mazmunini tushunmagan bo'lsa, xalqimiz bugun ularning maqsadi va mohiyatini, bu o'zgarishlarning barchasi uning o'zi, oilasi, kelajagi uchun amalga oshirilayotganini tobora chuqur anglab olmoqda. Shuning uchun ham agar hozirgi vaqtda hayotimizning biron-bir sohasini isloh qiladigan bo'lsak, avvalambor bundan ko'zlangan maqsad nimadan iborat ekanini, nima uchun bu o'zgarishni ertaga emas, aynan bugun qilishimiz zarurligini odamlarimizga sodda va aniq qilib tushuntirib berishimiz lozim. Lo'nda qilib aytganda, baraka topkur, bu ishlar sening manfaating uchun, sening ertangi kuning, bolalaring uchun, ularning hech kimdan kam bo'lmasdan yashashi uchun qilinyapti, agarki bu ishlarni qilmasak, biz ertaga taraqqiyotdan chekkada qolib ketishimiz mumkin, degan da'vatlar bilan odamlar ongiga ezgu g'oyalalarimizni singdira olsakkina, boshlagan islohotlarimiz kutilgan natijani beradi.

ni Ta'bir joiz bo'lsa, xalqimizning «Osilsang, baland dorga osil» degan maqoli bejiz aytilmagan. Biz o'z oldimizga katta-katta maqsadlar qo'yib, marrani baland olib yashashimiz va shu yo'lda el-yurtimizning qo'llab-quvvatlashiga tayanib, yanada qat'iyat bilan harakat qilishimiz kerak.

Aziz yurtdoshlar!

Bugungi kunda Konstitutsiyamiz muhrlab qo'ygan tamoyillarni amalga oshirish yo'lidan dadil qadamlar qo'yib borayotganimiz, davlat qurilishi, ijtimoiy-siyosiy, sotsial-iqtisodiy va gumanitar sohalarda biz amalga oshirayotgan keng ko'lamlı islohotlar va demokratik yangilanishlar, aholi turmush darajasi va sifatining jadal o'sib, yurtimiz qiyofasi, mamlakatimizning jahon hamjamiyatidagi o'rni butunlay o'zgarib borayotgani barchamizga katta g'urur va iftixor bag'ishlaydi.

O'tgan 22 yillik mustaqil taraqqiyotimiz davomida mamlakatimiz erishayotgan natija va marralar haqidagi ko'rsatkichlar yurtimizda bo'layotgan mislsiz o'zgarishlar to'g'risida aniq tasavvur beradi.

Ana shu davrda O'zbekiston iqtisodiyoti 4,1 barobar o'sdi. Agarki mamlakatimiz aholisi ayni shu davrda qariyb 9,7 millionga ko'payib, bugungi kunda 30 million 500 mingga yaqin kishini tashkil etayotganini hisobga oladigan bo'lsak, aholi jon boshiga nisbatan o'sish 3 barobardan ziyodni tashkil etishi bizning naqadar ulkan taraqqiyot yo'lini bosib o'tganimizdan dalolat beradi.

Jahon miqyosida hali-beri davom etayotgan moliyaviy-iqtisodiy inqirozning jiddiy ta'siriga qaramasdan, mamlakatimiz yalpi ichki mahsulotining yillik o'sishi 2008–2013-yillarda 8 foizdan oshdi, 2014-yilda esa

bu ko'rsatkich 8,1 foizni tashkil etadi. Bunday o'sish sur'atlarini kamdan kam davlatlarda kuzatish mumkin.

O'tgan davr mobaynida makroiqtisodiy ko'rsatkichlarning mutanosibliigi, davlat byudjetimizning profitsit bilan, ya'ni oshirib bajarilishi ta'minlanmoqda.

Mustaqillik yillarida mamlakatimizda aholining real yalpi daromadlari jon boshiga 8,2 barobar oshganining o'zi xalqimizning hayot darajasi tobora o'sib borayotganidan dalolat beradi.

Albatta, bu raqamlar juda muhim, lekin ular yurtimizdagi har qaysi odamga nima beradi, uning kundalik hayotida, dasturxonida qanday aks etmoqda, degan savol haqida bosh qotiradigan bo'lsak, aholi yalpi daromadlarining jon boshiga 8 barobardan ziyod oshgani, o'ylaymanki, bu savolga aniq javob bo'ladi.

Bu raqamga alohida urg'u berib gapirayotganimning boisi shundaki, biz uchun xalqimiz, odamlarimizning farovonligi, hayot sifati va darajasini oshirish eng oliy maqsad bo'lib kelmoqda. Yuqorida zikr etilgan raqam esa, ayni shu maqsad yo'lida qanday katta ishlarni amalga oshirganimizni yaqqol ko'rsatib turibdi.

O'zbekistonning tashqi davlat qarzi yalpi ichki mahsulotga nisbatan 16 foizdan oshmayapti, eksport va oltin-valyuta zaxiralarimiz hajmi ko'payib bormoqda.

Tashqi davlat qarzi haqida so'z yuritadigan bo'lsak, avvalo bu masala bo'yicha butun dunyoda qanday muhokamalar bo'layotgani, kim qanday muammo oldida turgani haqida bugun ko'p gapirishning hojati yo'q, deb o'ylayman.

Istiqlol yillarida mamlakatimiz iqtisodiyotida dollar hisobida 162 milliarddan ortiq kapital mablag' o'zlash-



tirilgan bo'lib, buning 56 milliard dollardan ziyodi xorijiy investitsiyalardir.

Faqatgina 2013-yilning o'zida kapital investitsiyalar hajmi dollar hisobida qariyb 14 milliardni yoki yalpi ichki mahsulotga nisbatan 23 foizni tashkil etadi.

Bularning barchasi avvalo nimaning isboti, nimaning dalili deb so'raydigan bo'lsak, bular iqtisodiyotimizdagi ijobiy tarkibiy o'zgarishlar natijasi, yangitdan ishga tushirilgan, jahon bozorida talab katta bo'lgan raqobatdosh mahsulotlar ishlab chiqarayotgan yuzlab, minglab zamonaviy korxonalar demakdir.

Bu raqamlar, avvalo, yuzlab, minglab kilometr temir yo'llar va avtomobil yo'llari, yuz minglab uy-joylar qurilgani, infratuzilma obyektlari bunyod etilgani, shahar va qishloqlarimiz qiyofasining tubdan o'zgarib, aholi farovonligi va hayot sifati oshib borayotganining dalilidir.

Bugun bir fikrni hech ikkilanmasdan, to'la ishonch bilan aytishimiz mumkin: O'zbekiston tarixan qisqa muddatda iqtisodiyoti biryozlama rivojlangan, asosan paxta xom ashyosi yetkazib berishga moslashgan, paxta yakkahokimligi halokatli tus olgan qoloq respublikadan tez sur'atlar bilan o'sib borayotgan zamonaviy sanoat tarmog'iga ega bo'lgan, jadal taraqqiy etayotgan mamlakatga aylandi.

Shu borada bir holatni eslatib o'tmoqchiman. Ilgarilari O'zbekiston agrar o'lka, qishloq xo'jaligiga asoslangan davlat, deb o'zimiz ham bu bilan maqtanib yurardik. Bir vaqtlar Farg'ona viloyatida bo'lib o'tgan katta majlisda bir tuman hokimi minbarga chiqib, siz bizdan sanoat haqida so'rayapsiz, axir, biz agrar respublika bo'lsak, sanoat nimaga kerak, deb menga javob berib aytgan so'zlari

hali-beri yodimdan chiqmaydi. «Biz umrbod qishloq xo'jaligi bilan yashaganmiz va shunday yashaymiz» degan fikrga yopishib olish, qani, aytinglar, bu bolalarimizga, farzandlarimizga, kelajak avlodimizga xiyonat emasmi?

Tarixdagi bosqinchilik, yurtimiz koloniya qilib olingani haqida ko'p gapiramiz. Koloniya aslida nima degani? O'zingiz bilasiz, koloniya degani ma'lum bir hududni aholisi bilan birga qaram qilib bosib olishni, uning mustaqil bo'lishi uchun hech qachon yo'l bermaslikni bildiradi.

Mustaqillikka erishish avvalo nima bilan belgilanadi? Mustaqil yurt birinchi navbatda o'z xalqini boqishga, mustaqil siyosat olib borishga qodir bo'lishi shart. Ertangi kunni o'ylash, bugungi hayot, iqtisodiyot tarkibini mutlaqo o'zgartirish, kerak bo'lsa, turli-turli sohalar – bu sanoat bo'ladimi, qishloq xo'jaligi bo'ladimi, ijtimoiy jabhalar bo'ladimi – bularning barchasini rivojlantirish uchun eng zamonaviy texnologiyalarni olib kelishga avvalo qurbi-qudrati yetishi zarur. Umuman, o'z xalqi, farzandlari, kelgusi avlodlarining dunyoda hech kimdan kam bo'lmasdan yashashini ta'minlay olish – aynan ana shunday ustuvor masalalarni hal qilishda har qaysi davlatning davlatligi, mustaqilligi amalda yaqqol namoyon bo'ladi.

Takror va takror aytaman – nomiga mustaqil bo'lish – bu faqatgina nomiga mustaqil bo'lishdir. Bu o'zini o'zi aldab yurishdan boshqa narsa emas. Shu ma'noda, biz nima bilan faxrlanishimiz, g'ururlanishimiz kerak? Avvalo, yuqorida zikr etilgan yutuqlarga haqiqiy mustaqil davlat, o'z yeri, o'z yurtiga ega, ozod va erkin xalq bo'lib, faqat o'z kuchimizga tayanib erishganimiz bilan, bu marralar kelgusida yanada farovon bo'lib yashashimiz uchun

mustahkam poydevor bo'layotgani bilan har qancha faxrlansak, har qancha shukrona aytsak, arziydi, albatta.

Mana, misol uchun, 1990-yilda sanoatimizning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi hammasi bo'lib 14,2 foizni tashkil qilar edi. Bugungi kunda bu ko'rsatkich 24,5 foizga yetdi. Ayni shu paytda qishloq xo'jaligining ulushi 1990-yilda 34 foiz bo'lgan bo'lsa, bugungi kunda 16 foizni tashkil qilmoqda. Ya'ni, qishloq xo'jaligining hajmi o'sib, faqatgina ulushi kamaymoqda, sanoatning ulushi esa ko'paymoqda.

Muxtasar aytganda, iqtisodiyotimizda ulkan tarkibiy o'zgarishlar amalga oshirilayotgani tufayli mamlakatimiz yalpi ichki mahsulotining barqaror sur'atlar bilan o'sib borayotganini biz anglab, tushunib, shundan nima foyda topayotganimizni o'zimizga aniq tasavvur etishimiz zarur.

Takror aytaman, biz jahondagi rivojlangan demokratik davlatlar qatoriga kiramiz, deb xalqimizni, bolalarimizni da'vat etyapmiz. Qachon biz bu marraga yetishimiz mumkin? O'zingiz ayting, faqat paxta, g'alla o'stirib, shuning hisobidan bunga erishish mumkinmi? Men viloyatlarga borib, dalalarda dehqonlarimiz, fermerlarimiz bilan gaplashganda, ularga shu savolni beraman.

Ey, baraka topkur, bugungi kunda faqat shunday fikr bilan yashash – bu kaltabinlik, uzoqni ko'rolmaslik, o'zimizni o'zimiz aldash bo'ladi. Xalqimiz ko'paymoqda. Mana, mustaqillik davrida aholimizning soni qariyb 10 millionga oshdi. Buncha odamni boqish, ish bilan ta'minlash, ular uchun kerakli shart-sharoitlarni yaratish kerak. Bizning boshqalardan farq qiladigan alohida bir fazilatimiz borki, biz hech qachon ma'naviy hayotni ikkinchi o'ringa qo'ymaymiz. O'tgan davrda xalqimiz

ma'naviyatini rivojlantirish bo'yicha ham ko'p ish qildik. Shu ma'noda, moddiy nuqtayi nazardan g'arbdan balki biroz orqada bo'lsak ham, ma'naviy jihatdan ulardan o'zib ketdik, desam, nima deysizlar?

Mustaqillik yillarida yurtimizda biz uchun mutlaqo yangi bo'lmish avtomobilsozlik, motorsozlik va ularga butlovchi qismlar tayyorlaydigan sohalarga, neft va gazni qayta ishlaydigan, farmatsevtika mahsulotlari, zamonaviy televizor va kompyuterlar ishlab chiqaradigan yangi-yangi sanoat tarmoqlariga asos solindi. Shuningdek, oziq-ovqat, yengil sanoat, kimyo, qurilish materiallari sanoati va boshqa tarmoqlar to'liq modernizatsiya qilindi va dunyo bozorida raqobatdosh bo'lgan tovarlar ishlab chiqarish boshlandi va davom etmoqda.

O'zining ahamiyati va mohiyatiga ko'ra hech narsa bilan qiyoslab bo'lmaydigan hayotimizdagi o'zgarishlar haqida gapirganda, avvalo, odamlarimizning dunyoqarashi va kayfiyati, fikr-u zikri, ularning hayotga, o'z mehnati natijasiga munosabati tubdan o'zgarib, yuksalib borayotgani haqida to'xtalmasdan o'tolmaymiz.

Bugun insonning o'zi o'zgarmoqda, uning grajdanlik va siyosiy ongi, huquqiy madaniyati o'smoqda. Biz kommunistik mafkura asoratlaridan, boqimandalik kayfiyatidan, turli soxta qoliplardan to'la xalos bo'lib bormoqdamiz. Mustaqil fikrleydigan, zamonaviy bilim va kasb-hunarlariga ega, hayotga yangicha qaraydigan, sobiq mustabid tuzumga xos tushunchalardan ozod bo'lib voyaga yetayotgan, o'z fikri va qarashlariga ega bo'lgan navqiron yoshlarimiz hayotga ishonch bilan kirib kelmoqda, jamiyatimizda mustahkam o'rin olmoqda va mamlakatimizning taraqqiyoti yo'lida hal qiluvchi kuchga

aylanmoqda. Bizning eng katta boyligimiz aynan ana shunda desam, adashmagan bo‘laman.

Hayotimizda amalga oshirilayotgan bunday o‘zgarishlar nimani anglatadi?

**Birinchidan.** Bu amaliy ishlar, avvalambor, mamlakatimizda zamonaviy demokratik jamiyat qaror topayotgani va izchil rivojlanayotganidan, aholining hayot darajasi va sifatining yuksalib borishiga zamin bo‘layotgan iqtisodiyotimizning barqaror sur‘atlar bilan o‘sayotganidan, O‘zbekistonimizning xalqaro maydondagi obro‘-e‘tibori tobora ortib borayotganidan darak beradi.

**Eng muhimi, yurtimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning samaradorligi va ta’sirchanligi ona Vatanimiz – O‘zbekistonning dunyodagi rivojlangan demokratik davlatlar qatoriga kirishi uchun bugungi kunda barcha imkoniyatlar yaratildi, deb aytishga to‘la asos beradi.**

Haqiqatan ham, eski zamoni qo‘msab yurganlar hozirgi vaqtda oramizda yo‘q, desam, ishoninglar. Men o‘zim bu masalaga doimo e‘tibor beraman. Endi, nima deymiz, hayot o‘zi shunday: kechagi tuzumda yashagan odamning dunyoqarashi birdaniga o‘zgarib qolmaydi. Lekin, bizning 22 yilda erishgan eng katta yutug‘imiz shuki, xalqimiz, avvalambor yoshlarimiz – mening bolalarim bugun mutlaqo boshqacha fikrlaydi. Ularning eski zamon illatlaridan butunlay xoli bo‘lib yashayotganidan men juda xursandman.

**Ikkinchidan.** Biz qo‘lga kiritgan marralar mustaqil rivojlanishning o‘tgan davrida xalqimizning tarixiy va milliy xususiyatlarini inobatga olgan holda, mamlakatimiz Konstitutsiyasida belgilab qo‘yilgan strategik maqsad va

vazifalar sari tadrijiy, bosqichma-bosqich va izchil ilgarilab borish naqadar to'g'ri bo'lganini tasdiqlamoqda.

Tadrijiy rivojlanish – bu evolyutsion yo'l degani. Biz buni bosqichma-bosqich, qadam-baqadam rivojlanish, deymiz. Mening nazarimda, buning ma'nosi xalqimiz o'rtasida maqolga aylanib ketgan «Yangi uyni qurmasdan turib eskisini buzmag» degan shiorimizda o'z aksini topgan. Buning ma'nosi shuki, baraka topkur, yangi hayotga qadam qo'ydingmi, avvalo uning poydevorini, fundamentini to'g'ri qurib ol. Ungacha eski uyni buzib, vayrona qilib tashlash – bu aqldan emas.

**Uchinchidan.** Ayni vaqtda biz bir haqiqatni yaxshi anglaymiz: albatta, zamonaviy Konstitutsiyaga, unda ko'rsatib berilgan maqsad-muddaolarga erishish uchun ishlab chiqilgan ajoyib Strategiyaga ega bo'lish mumkin. **Ammo, mehnatkash va oliyjanob xalqimiz bu yo'lda tog'dek tayanch bo'lib turmasa, o'zingiz ayting, aziz do'stlarim, qadrdonlarim, biz mana shunday yuksak marralarni qo'lga kirita olarmidik?**

Faqat xalqimizning mardligi va matonati, jonkuyarligi va qat'iyati, odamlarimizning beqiyos mehnati barchamizga haqli ravishda faxr-u iftixor bag'ishlaydigan ulkan yutuq va natijalarga erishish imkonini berdi.

Bugun, mana shu yuksak minbardan turib, siz, azizlarning barchangizga, sizlarning timsolingizda azm-u shijoatli, fidoyi xalqimizga yana bir bor o'zimning chuqur minnatdorligimni bildirib, ta'zim qilishga ijozat bergaysiz.

Hurmatli do'stlar!

O'tgan davrda amalga oshirgan ishlarimizni sarhisob qilar ekanmiz, avvalo, erishilgan yutuqlarga mahliyo bo'lib, xotirjamlik kayfiyatiga berilmasligimiz, real voqelikdan

uzilib qolmasligimiz zarurligini, o'ylaymanki, hammamiz yaxshi tushunamiz.

Biz bugungi dunyoda egallab turgan o'rnimizni xolisona va tanqidiy baholashimiz, tobora o'sib borayotgan hayot talablari bilan hamohang tarzda borishimiz, o'z istiqbolimizga ochiq ko'z bilan qaragan holda qadam qo'yishimiz nihoyatda muhimdir.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan 2010-yilning noyabr oyida Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasining qabul qilinishi yurtimizda amalga oshirilayotgan demokratik yangilanish va modernizatsiya jarayonlarining qonuniy va mantiqiy davomi bo'ldi.

Mazkur Konsepsiya, mohiyat e'tiboriga ko'ra, uzoq muddatga mo'ljallangan Dastur bo'lib, u bugungi globallashtirish zamonida, dunyo shiddat bilan o'zgarib borayotgan bir sharoitda o'zaro uzviy bog'liq bo'lgan siyosiy va iqtisodiy islohotlar, davlat hokimiyati va boshqaruvi tizimini demokratlashtirish va erkinlashtirish, sud hokimiyatining mustaqilligini, so'z va axborot erkinligini, saylov erkinligini ta'minlash, saylov tizimini takomillashtirish, fuqarolik jamiyatini rivojlantirish bo'yicha ustuvor vazifalarni belgilab berdi.

O'tgan davr mobaynida bu yo'nalishlarning har biri bo'yicha ancha ishlar bajarildi va bajarilmoqda. Bunday o'zgarishlarni barchamiz matbuotimizda va televideniye orqali muhokama qilina yotgan loyihalar va parlamentimiz – Oliy Majlisimiz qabul qilayotgan ko'pgina qonunlar misolida ko'rishimiz, kuzatishimiz qiyin emas, albatta.

Shu borada o'tgan davr mobaynida parlamentimiz faoliyatini yanada takomillashtirishga oid qator tuzatishlar qabul qilganimiz e'tiborga sazovor, deb o'ylayman. Qonunlar va me'yoriy hujjatlarni ko'rib chiqish va qabul qilishning barcha bosqichlarida deputatlar va siyosiy fraksiyalarning roli kuchaytirilgani va bugungi kunda fraksiyalar (deputatlik guruhlar)ning fikr va takliflarini hisobga olmasdan turib biron-ta hujjat qabul qilinmasligi bu yo'lda katta qadam bo'ldi, desam, hech qanday xato bo'lmaydi.

Bugun oldimizda turgan demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish vazifasi haqida gapirar ekanmiz, eng avvalo, davlat hokimiyati faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratining yaxlit tizimini tashkil qilish, buning uchun huquqiy normalarni mustahkamlash, kerak bo'lganda, maxsus qonunlarni qabul qilish lozim. Bu – zamon talabi. Agar shu talabni bajarmasak, rivojlangan dunyodan orqada qolib ketamiz. Davlat organlari avvalo jamoatchilikning fikriga qarab, uning xohishi, orzu-intilishlarini inobatga olgan holda ishlashi zarur. Davlat organlari deganda, davlat idoralari, qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi, sud hokimiyati tarmoqlarini tushunish kerak.

Davlatning ustidan jamiyat nazorati bo'lsa, odamlar turli idoralar faoliyatidan xabardor bo'lsa, ularning ishiga rozilik bildirsa, ana shunda demokratik rivojlanish bo'ladi. Ayniqsa, biron-bir sohada xato bo'lishi, noto'g'ri qaror qabul qilinishi, kimdir, aytaylik, oyog'i yerdan uzilib, qandaydir noma'qul ishlarga berilishi – bularning hammasini nimaning hisobidan bartaraf etish, oldini olish mumkin? Birinchi navbatda jamoatchilik nazorati hisobidan.




Albatta, bu borada tegishli davlat organlari ishlashi kerak. Ma'lumki, bizda turli-turli nazorat tashkilotlari bor. Ba'zi davlatlarda ularning soni tobora oshib borayotganini o'zingiz ko'rib turibsiz. Aslida, bunday tekshiruvchi organlarning soni qancha ko'p bo'lsa, qonunbuzarlik ham, afsuski, shuncha ko'p bo'ladi.

Men eski zamonni boshidan o'tkazgan inson sifatida bu masala bo'yicha juda ko'p misollarni olib kelishim mumkin. Sobiq sovet davrida ishlaganda, har qadamda nazoratga duch kelar edik. E'tibor bersangiz, Moskvada Davlat kontroli komiteti bo'lar edi. Bundan tashqari, xalq kontroli degan idora bor edi. Yana partiya kontroli bor edi. Bulardan hamma qo'rqib yurardi. Joylarda ham ahvol shunday edi.

Bundan xulosa shuki, nazorat idoralarining soni qancha kam bo'lsa, shuncha yaxshi. Va aksincha, ishlaydigan bitta odamga ikkita nazoratchi to'g'ri keladigan bo'lsa, bilib qo'yingerlar, bunday sharoitda hech qachon tartib-intizom bo'lmaydi. Bunday holatga yo'l qo'yimaslikning faqatgina bitta yo'li bor. U ham bo'lsa, jamoatchilik nazoratini kuchaytirishdan iborat. Buning uchun nima qilish kerak? Buning uchun, avvalambor, jamoatchiligimizning ham siyosiy, ham fuqarolik saviyasini oshirishimiz lozim. Lekin yana bir tomoni borki, jamoatchilik nazoratini faqat tanqid qilishdan iborat, deb tushunmaslik kerak. Agar bir narsani tanqid qilib, noto'g'ri desa, xo'p, uning o'rniga nima taklif qilasan, degan savol tug'iladi. Agar shu savolga aniq javob bera olmasa, o'zining mustaqil fikri, amaliy taklifi bo'lmasa, bunday nazoratning kimga keragi bor o'zi?

Nazorat – nazorat uchun emas, nazorat ishni yaxshilash uchun, halol ishlash uchun, harom ishlarga yo'l qo'ymas



lik uchun zarur. Ota-bobolarimizning harom-xarishdan uzoqroq bo‘l, degan naqli bejiz aytilmagan.

Shu nuqtayi nazardan qaraganda, «Ijtimoiy sheriklik to‘g‘risida», «O‘zbekiston Respublikasida jamoatchilik nazorati to‘g‘risida»gi qonun loyihalarini chuqur muhokama qilish va ularni qabul qilishni tezlashtirish eng muhim vazifalarimizdan biridir. Shular qatorida «Ommaviy axborot vositalari faoliyatining iqtisodiy asoslari to‘g‘risida», «Ommaviy axborot vositalarini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash kafolatlari to‘g‘risida»gi ommaviy axborot vositalarining mustaqilligi, axborot va so‘z erkinligini ta‘minlaydigan, erkin axborot maydonini tashkil qiladigan boshqa qonunlarning muhokamasini tezlashtirish va qabul qilish darkor.

Bu masala haqida gapirganda, bizning matbuotimiz, mana shu 22 yil davomida axborot va so‘z erkinligi yo‘lida juda katta qadam qo‘yganini ta‘kidlash lozim. Lekin, hali bu borada ko‘p ish qilishimiz kerak. Avvalambor, har qaysi jurnalist o‘z ichida bo‘lgan qandaydir tortinishdan, bu gapni aytsam, oshkor qilsam, ertaga o‘zimga dushman orttiraman, degan kayfiyatdan xalos bo‘lishi lozim. Bunday qarash bilan yurgan ommaviy axborot vositalari xodimlariga qarata men, ey, baraka topkur, bunaqa ishlagandan ko‘ra boshqa ishni topganingiz ma‘qul emasmi, deb aytgan bo‘lardim. Agarki vijdoningizga to‘g‘ri kelmasa, qat‘iyatingiz, irodangiz yetmasa, nima qilasiz o‘zingizni haqiqatchi qilib ko‘rsatib, nima qilasiz bu ishlarga bosh qo‘shib?

Kim haqiqatchi bo‘ladi – agarki o‘zi toza bo‘lsa, har qanday noma‘qul ishga qarshi kurashishga tayyor bo‘lsa.

Bunday jurnalistlarni qo'llab-quvvatlashga men doimo tayyorman.

Konsepsiyaga muvofiq, sud-huquq tizimini yanada isloh etish, jamiyatni rivojlantirish va demokratlashtirishning muhim tarkibiy qismi sifatida sudlarning mustaqilligi va erkinligini mustahkamlash, qonun ustuvorligini, inson huquq va erkinliklarining ishonchli himoyasini ta'minlash bo'yicha izchil ishlar amalga oshirildi.

Avvalo, prokuratura organlarining sud hokimiyati ustidan nazorat funksiyalari to'liq bekor qilindi, prokuratura vakolatlaridan sud qarorlari ijrosini to'xtatib turish huquqi chiqarildi. Jinoyat ishini yuritishda sud nazoratini mustahkamlash, himoya va ayblov tortishuvini ta'minlash tizimi va mexanizmlarini takomillashtirishda «Xabeas korpus» instituti qo'llanishini kengaytirish bo'yicha qonun hujjatlari amalga oshirilmoqda.

Jinoyat-protsessual qonunchilikdan sudning jinoyat ishini qo'zg'atish, jinoyat ishi bo'yicha ayblov xulosalarini e'lon qilish vakolatlari soqit qilindi, sudgacha ish yuritish bosqichida tergov ustidan sud nazorati kuchaytirildi. Shaxsni lavozimidan chetlashtirish va tibbiyot muassasasiga joylashtirish kabi protsessual majburlov choralarini qo'llash vakolatlari sudlarga berildi.

Qabul qilingan qonunchilik hujjatlariga ko'ra, tezkor-qidiruv ishlarini olib borishning aniq asoslari belgilandi, bu jarayonda qonunchilikka rioya qilish, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ta'minlash, ma'muriy o'zboshimchalikka yo'l qo'ymaslik bo'yicha real huquqiy kafolatlar yaratildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining sud tizimi xodimlarining ijtimoiy himoyasini tubdan yaxshilash,

shuningdek, tuman va shahar umumiy yurisdiksiya sudlarining faoliyatini takomillashtirish va samaradorligini oshirish bo'yicha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risidagi farmonlarining qabul qilinishi sud hokimiyatining nufuzini mustahkamlash, zamonaviy demokratik talablarga javob beradigan sud kadrlarini tanlash va tayinlashning samarali tizimini yaratish borasida muhim ahamiyatga ega bo'ldi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013-yilning iyun oyida qabul qilingan «Yuridik kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qaroriga muvofiq, Toshkent davlat yuridik instituti Toshkent davlat yuridik universitetiga aylantirildi, yuridik ta'lim tizimining fundamental asoslarini tubdan isloh qilish va yaxshilashning poydevori yaratildi.

Hammangizga ma'lum, yurist kadrlarning saviyasini oshirish bugungi kunda biz uchun juda katta ahamiyatga ega. Huquqshunoslik sohasidagi murakkab masalalarning tub ildizigacha yetib boradigan, ularning yechimini har tomonlama chuqur asoslab ko'rsatib beradigan yurist kadrlar deyarli yo'q ekanini tan olishimiz lozim. Bu masalada eski zamon qoldiqlari, afsuski, hali-beri barham topgani yo'q. Masalan, bir vaqtlar sud idoralarida ishlaydigan xodimlarning oylik maoshi bilan qiziqib ko'rganimizda, bilasizmi, ancha noxush holatning guvohi bo'lgan edik. Ya'ni, odamlarning ustidan hukm chiqaradigan, ularning taqdirini hal etadigan, chigal muammolarini yechib beradigan sudyalarning oyligi talab darajasida bo'lmasa, qani, aytinglar, u qanday qilib adolatli qaror chiqarishi mumkin?

Hozirgi vaqtda bunday nomaqbul holatga butunlay barham berildi.

Shu nuqtayi nazardan qaraganda, biz sud-huquq tizimi, ommaviy axborot vositalari sohasining mustaqilligini amalda ta'minlamoqchi bo'lsak, avvalo ularning moddiy, moliyaviy manbaini mustaqil qilishimiz, xodimlarining munosib ish haqi olishini ta'minlashimiz kerak. Kim pul to'lasa, musiqani shu buyuradi, degan gap shunchaki o'ylab topilgan emas, hayot haqiqatidan kelib chiqqan gap.

Ayni shu masalalar bo'yicha biz xalqaro tajribani atroflicha o'rganyapmiz. Mana, masalan, Amerika Qo'shma Shtatlari tajribasi bilan tanishyapmiz. Ularda ba'zi bir jihatlar, bizga ma'qul prinsiplar borki, ulardan ko'p narsani olishimiz kerak. Biz sud tizimi amalda mustaqil bo'lishi kerak, deganda, avvalo uning davlatga, hokimiyat organlariga, mansabdor shaxslarga muhtoj va qaram bo'lmasligini tushunamiz.

Masalaga ana shunday ko'z bilan qarab, ko'p narsani chet mamlakatlar tajribasidan o'rganib, tashkiliy-huquqiy muammolarni yechib bersak, undan keyingina sud idoralaridan, sudyalardan biz kutgan natijalarni talab qilish mumkin. Shundagina, qani, sen mustaqil ish yurita olasanmi yoki yuqoridan bo'ladigan telefonga qarab hukm chiqarasanmi, degan gap-so'zlarga mutlaqo o'rin qolmaydi.

Bugungi kunda nodavlat notijorat tashkilotlari demokratik qadriyatlar, odamlarning huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlarini himoya qilish, ularning ijtimoiy, sotsial-iqtisodiy faolligi va huquqiy madaniyatini oshirishning muhim omiliga aylanmoqda.

Hozirgi paytda mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan nodavlat notijorat tashkilotlarining soni 6 mingdan ortdi,

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi huzuridagi Nodavlat notijorat tashkilotlarini va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini qo'llab-quvvatlash jamoat fondi tomonidan grantlar bo'yicha berilayotgan mablag'lar miqdori so'nggi uch yilda ikki barobar ko'paydi.

Nodavlat notijorat tashkilotlari sog'liqni saqlash, atrof-muhitni muhofaza qilish, bandlikni ta'minlash va aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarini qo'llab-quvvatlash sohalaridagi dolzarb muammolarni hal qilish bo'yicha dasturlarni amalga oshirishga, shuningdek, huquqiy me'yorlarni ishlab chiqish jarayoniga keng jalb qilinmoqda. Konsepsiya doirasida tayyorlanayotgan qonun loyihalari, ayni paytda katta ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan boshqa qonun hujjatlari bo'yicha jamoatchilik o'rtasida muhokamalar o'tkazilmoqda.

Buning yaqqol tasdig'ini fuqarolik jamiyati institutlari, ommaviy axborot vositalarining «Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligi to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi qonuni loyihasini sinovdan o'tkazish bo'yicha Buxoro va Samarqand viloyatlarida qariyb bir yildan buyon o'tkazilayotgan huquqiy tajribada keng ishtirok etayotganida ko'rish mumkin.

Shular haqida va amalga oshirayotgan ishlarimizning davomi haqida gapirar ekanmiz, yana bir muhim masalaga e'tibor qaratishimiz lozim.

Rivojlangan demokratiyaga ega bo'lgan davlatlarning tajribasi, shu bilan birga, O'zbekistonning siyosiy va konstitutsion rivojlanishining mantiqiy yo'li xalqimiz, jamoatchiligimizning namoyandalari bo'lmish vakillik, deputatlik organlarining jamiyatimiz hayotidagi roli va ahamiyatini yanada oshirishni, sodda qilib aytganda, bu

yo'lda boshlagan ishlarimizni izchil davom ettirishni talab etmoqda.

**Ayni shu borada O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining yuqori palatasi – Senat hamda quyi – Qonunchilik palatasining rolini yanada kengaytirish, faqatgina qabul qilingan qonunlarning ijrosini tekshirish bilan chegaralanmasdan, Vazirlar Mahkamasi hamda ijro organlari faoliyati ustidan nazoratini kuchaytirish, ichki va tashqi siyosatni amalga oshirishda, eng muhim strategik masalalar bo'yicha qarorlar qabul qilishda huquq va vakolatlarini oshirish uchun, o'ylaymanki, Konstitutsiyamizga tegishli qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish maqsadga muvofiq bo'ladi.**

Aytmoqchimanki, albatta, huquqqa ega bo'lish qiyin emas, lekin berilgan huquq va vakolatlardan foydalanish – bu oson emas. Bu bizning bugungi kundagi eng zaif tomonimiz, desak, to'g'ri bo'ladi.

Bizning deputatlarimizga juda ko'p huquq berilgan. Lekin ularning bu huquqlardan foydalanishi, afsuski, ko'ngildagidek emas. O'ziga berilgan huquqni anglab kimdir mas'uliyatni, javobgarlikni o'z zimmasiga olishi, mavjud muammolar haqida bosh qotirishi, kechalari bilan uxlamasdan shu haqda o'ylashi kerakmi, yo'qmi?

«Bu ishlarni kim qilsa qilaversin, biz faqat chetdan turib tanqid qilishni bilamiz, yoki, umuman aytganda, faqat qo'llab-quvvatlashni xohlaymiz» degan qarash bilan bundan buyon yashab bo'lmaydi. Vazifani qancha qattiqroq qo'ysak, mas'uliyatni oshiradigan bo'lsak, birinchi navbatda nima kerak? Albatta, malaka kerak, albatta, javobgarlik kerak, albatta, o'z deputatlik burchiga mutlaqo yangicha yondashuv kerak. Deputat tomoshabin

emas, kuzatuvchi emas, baraka topkur, deputat – bu xalqdan chiqqan, xalqning dardi bilan yashaydigan inson. Agar u el-yurtni deb tashvish chekadigan bo'lsa, shu maqsadda fidoyilik ko'rsatadigan bo'lsa, mana shunday odamlarni men deputat deb bilaman.

Shular qatorida Vazirlar Mahkamasi va joylardagi ijro hokimiyatlarining mas'uliyatini oshirish, Oliy Majlis va mahalliy kengashlarda ularning hisobotini muntazam ravishda eshitish va tegishli xulosalar chiqarishni bugun hayotning o'zi taqozo etmoqda.

Hech shubhasiz, puxta o'ylangan bunday islohotlarni davom ettirish biz ko'zlagan, ya'ni «Kuchli davlatdan kuchli fuqarolik jamiyatiga o'tish» tamoyili – prinsipini amalga oshirishda yangi, qat'iyatli bir qadam bo'ladi.

Muhtaram vatandoshlar!

Ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy taraqqiyotning aniq ustuvor yo'nalishlarini belgilab olishda siyosiy partiyalarning rolini keskin kuchaytirish, mamlakatimizni isloh etish va modernizatsiya qilish bo'yicha strategik vazifalarni hal etishda ularning ishtirokini kengaytirish demokratik islohotlarni izchil amalga oshirishning eng muhim omiliga aylanmog'i zarur.

**Boshqacha qilib aytganda, ko'ppartiyali tizimni mustahkamlash va partiyalararo raqobatni kuchaytirish – biz ko'zlagan demokratik davlat barpo etishning eng muhim shartlaridan biriga aylanishi darkor.**

Ming afsuski, ba'zi vaqtlarda joylarda, qishloqlarda, mahallalarda yashayotgan odamlardan, mana bu partiyaning boshqa partiyadan nima farqi bor, deb so'rasak, ular aniq javob bera olmaydi. Balki bu gap kimgadir yoqmasligi mumkin, lekin bu – haqiqat. Partiya degani bir-biridan farq



qilishi kerak. Har qaysi partiya o'z tarafdorlari manfaatini himoya qilish, o'zini amalda ko'rsatish, obro' topish uchun, odamlarni ortidan ergashtirish, ularni ezgu maqsadlarga boshlash uchun qodir bo'lishi lozim. Va kerak bo'lsa, taraqqiyot yo'lida to'siq bo'lib turgan muammolarni hal qilishda boshqa yechimni taklif qiladigan partiyalarga qarshi o'z fikrini oqilona yo'llar bilan bildirishi darkor. Ba'zan televideniya ko'rib qolamiz, ayrim chet davlatlarning parlamentlarida turli olishuvlar, mushtlashuvlar, bir-birini haqorat qilishlar bo'ladi. Bizga bunday «o'yin»lar kerak emas, albatta. Bizdagi har qaysi partiya o'z platformasi, o'z dasturini amalga oshirishga albatta qodir bo'lishi kerak. Buning uchun ularda avvalo yetarli siyosiy saviya bo'lishi zarur.

Partiyaga hamma ham, aytaylik, yetakchi bo'la olmaydi. Yetakchi avvalo o'ziga, o'zining salohiyatiga aniq ishongan, prinsipial odam bo'lishi kerak. U o'zining partiyasi, tarafdorlari nimani xohlashini aniq tasavvur etishi va bu maqsadlarni amalga oshirish uchun chuqur tayyorgarlikka, mustaqil fikrga ega bo'lishi zarur. Menga buyursa, har qaysi partiya rahbari ertaga prezident bo'laman, deb harakat qilishi kerak, deb aytgan bo'lardim.

Biz bu o'rinda o'z nizomiga va jamiyat oldida turgan muammolarni hal qilish borasida o'z nuqtayi nazari aniq ifoda etilgan harakat dasturiga ega bo'lgan siyosiy partiyalarni ko'zda tutamiz. So'z, avvalo, o'z elektoratiga ega bo'lgan, davlat va jamiyat qurilishining asosiy masalalari, mamlakatda yuritilayotgan ichki va tashqi siyosat bo'yicha aniq-ravshan pozitsiyasi bilan, saylovda mazkur partiya uchun ovoz beradigan odamlar manfaatlarini

qat'iy himoya qilishga qodirligi bilan saylovchilar o'rtasida obro' qozongan partiya haqida bormoqda.

Ushbu masalalarning barchasi 2014-yilning dekabr oyida Oliy Majlis va mahalliy hokimiyat vakillik organlariga o'tkaziladigan umumxalq saylovlari nuqtayi nazaridan alohida dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Yuqorida aytilgan fikr-mulohazalarni yakunlab, xulosa qilar ekanmiz, Konstitutsiyamiz muqaddimasiga bugun yana bir bor murojaat qilish o'rinli bo'ladi, deb o'ylayman.

Ushbu Muqaddimada, jumladan, quyidagi qoida bayon qilingan: «O'zbekiston xalqi: inson huquqlariga va davlat suvereniteti g'oyalariga sodiqligini tantanali ravishda e'lon qilib, hozirgi va kelajak avlodlar oldidagi yuksak mas'uliyatini anglagan holda, demokratiya va ijtimoiy adolatga sadoqatini namoyon qilib, respublika fuqarolarining munosib hayot kechirishlarini ta'minlashga intilib, insonparvar demokratik huquqiy davlat barpo etishni ko'zlab, o'zining muxtor vakillari siymosida O'zbekiston Respublikasining mazkur Konstitutsiyasini qabul qiladi».

Men bugun ushbu muhtasham zalda to'plangan siz, azizlarga, sizlarning timsolingizda butun xalqimizga murojaat qilib aytmoqchiman. **Biz o'tgan yillar davomida amalga oshirgan barcha ezgu ishlarimizni davom ettirib, kelgusida ham o'z tanlagan yo'limizdan hech qachon ortga qaytmaymiz va Konstitutsiyamizda belgilab berilgan barcha oliyjanob maqsad-muddaolarimizni so'zsiz amalga oshiramiz.**

Aziz yurtdoshlar!

Vatanimizni har tomonlama taraqqiy ettirish va obod qilish borasidagi ishlarimizni yangi, yuksak bosqichga ko'tarish maqsadida 2013-yilga mamlakatimizda «Obod

turmush yili» deb nom berganimiz el-yurtimiz tomonidan katta mamnuniyat bilan qabul qilindi.

Yil davomida davlatimiz va jamiyatimizning barcha kuch va imkoniyatlarini safarbar etib, mamlakatimizda ulkan ishlar amalga oshirildi va aytilish mumkinki, bu ko'pgina masala va muammolarni yechishga katta hissa qo'shdi.

Joriy yilda obod hayotning asosiy sharti bo'lgan aholining real daromadlarini oshirish, kichik biznes, xususiy tadbirkorlik va fermerlik harakatini yanada rivojlantirish, yangi-yangi ish o'rinlari yaratish, sotsial masalalarni yechish borasidagi ishlarimizni izchil davom ettirdik.

O'ylaymanki, sizlar yaxshi xabardorsiz, mamlakatimizda har yili davlat byudjetini qabul qilishda ayni ijtimoiy sohani rivojlantirishga alohida ahamiyat beriladi. 2013-yilda bu sohaga ajratilgan mablag'lar byudjetimiz umumiy xarajatlarining 60 foizini tashkil etdi. Bu esa 2012-yilga nisbatan 1 trillion so'mga ko'proqdir.

Bugungi kunda odamlarimizning hayot darajasi qanday o'sib borayotgani haqida gapirganda, ko'zga yaqqol tashlanadigan ba'zi bir ko'rsatkichlarga e'tiboringizni qaratmoqchiman.

Hozirgi vaqtda mamlakatimizda yashayotgan har uchta oilaning bittasi shaxsiy yengil avtomobilga ega. Yurtimizdagi har 100 ta oilaga o'rtacha 80 ta xolodilnik, 146 ta televizor to'g'ri kelmoqda. Bu esa ba'zi oilalarda ikki-uchtadan televizor borligini ko'rsatadi. Shuningdek, aholining kir yuvish mashinalari, pilesos, mikroto'lqinli pechlar, shaxsiy kompyuter va boshqa zarur vositalar bilan ta'minlanish darajasi ortib bormoqda.

Respublikamizda mobil aloqa xizmatidan foydalanuvchilar soni 19 million nafarni tashkil etib, har bir oilaga oʻrtacha 3 ta uyali telefon toʻgʻri kelmoqda. Shuningdek, mamlakatimizda Internet abonentlari soni oʻtgan yilga nisbatan 19 foizga oʻsib, hozirgi paytda 7 million 100 ming nafarni tashkil etmoqda.

Bu misollar xalqimizning nafaqat hayot darajasi, balki hayot sifati ham izchil oshib borayotganini koʻrsatadi.

2013-yilning oʻzida qishloq ahliga uy-roʻzgʻor buyumlari sotib olish uchun qariyb 68 milliard soʻmlik isteʼmol kreditlari, yosh oilalarga uy-joy qurish va ularning shu boradagi intilishlarini moliyaviy qoʻllab-quvvatlash maqsadida 346 milliard soʻmdan ortiq, yaʼni oʻtgan yilga nisbatan 10 foiz koʻp ipoteka kreditlari ajratilganini taʼkidlash zarur.

Biz uchun dolzarb ahamiyatga ega boʻlgan aholi bandligini taʼminlash uchun joriy yilda 970 mingdan ortiq ish oʻrni yaratilib, ularning 60 foizi qishloq hududlarida tashkil etilgani, eng muhimi, kasb-hunar kollejlari bitirgan 500 mingdan ziyod yigit-qizlarimizni ishga joylashtirganimizning oʻzi eng katta yutuqlarimiz qatoriga kiradi.

Men ayni shu masalaga alohida eʼtiboringizni jalb etmoqchiman. Endigina katta hayotga qadam qoʻyayotgan yarim milliondan ortiq bolalarimizni, oʻzimizning farzandlarimizni ishga joylashtirish degani nimani anglatadi? Bu – faqat quruq raqam emas. Bu raqamlar ortida qancha-qancha odamlar, yoshlarimizning taqdiri, ularning ertangi kuni, baxt-u saodati, quvonch va orzulari mujassam. Bu bolalar ishga joylashgan boʻlsa, bir oydan keyin ota-onasiga, mana, sizlarga birinchi maoshimni olib keldim, deb aytsa, oilada bundan ortiq xursandchilik boʻlishi mumkinmi?

Men buni tasavvur qilar ekanman, xuddiki o'zimning hayotimda shunday hodisa yuz bergandek quvonib ketaman. Bizning har birimiz bu hayotda turli sinovlarni boshimizdan kechirganmiz. Lekin davlat nuqtayi nazaridan, jamiyat nuqtayi nazaridan, ota-onalik nuqtayi nazaridan bolalarimizga ayni shunday sharoitlar yaratib berish bu – bizning muqaddas burchimizdir. Biz bu burchni albatta bajarishimiz kerak.

Yana bir ustuvor vazifamiz – xalqimiz salomatligini muhofaza qilish, sog'liqni saqlash tizimini takomillashtirish va samarasini oshirish, profilaktika ishlarini kuchaytirish bo'yicha bajargan ishlarimiz haqida alohida to'xtalib o'tmoqchiman.

Tug'uruq yoshidagi 7 million ayol hamda 7 million 300 ming nafar bola tibbiy ko'rikdan o'tkazildi, 195 ming nafar yolg'iz qariyalar, nogiron va pensionerlarga malakali tibbiy yordam ko'rsatildi.

Yil mobaynida mamlakatimiz bo'yicha 311 milliard so'mlik byudjet mablag'i hisobidan 146 ta zamonaviy tibbiyot muassasasi foydalanishga topshirildi. Jumladan, Andijon viloyat ko'p tarmoqli tibbiyot markazida yangi davolash korpusi va diagnostika bo'limi, bolalar kasalliklari sanatoriysi barpo etildi. Qashqadaryo viloyatining Chiroqchi tumanida tibbiyot birlashmasi, Surxondaryo viloyatida ko'p tarmoqli bolalar va kattalar tibbiyot markazlari, Farg'ona viloyatining O'zbekiston va Qo'shtepa tumanlari tibbiyot birlashmalari va boshqa o'nlab kasalxonalar tubdan rekonstruksiya qilindi.

Shu bilan birga, Toshkent shahridagi Pediatriya tibbiyot instituti klinikasida hamda Respublika pediatriya

ixtisoslashgan ilmiy-amaliy tibbiyot markazida yangi jarrohlik korpuslari ishga tushirildi.

Birgina 2013-yilning o'zida Respublika ixtisoslashgan xirurgiya markazining kardioxirurgiya majmuasi va boshqa shunday shifoxonalarda yurak-qon tomir kasalliklariga chalingan 4 mingdan ziyod bemor dardiga davo topdi.

Namangan va Urganch shaharlarida esa yurak klapanlarini almashtirish, tug'ma va orttirilgan yurak kasalliklarini operatsiya qilish, elektr kardiostimulyator implantatsiyasi, exokardiografiya kabi davolashning yangi usullari yo'lga qo'yildi. Nukus, Qarshi, Farg'ona, Samarqand, Buxoro, Jizzax shaharlarida esa yurak holatini uzluksiz monitor qilib borish amaliyoti keng o'tkazilmoqda.

Shuningdek, Urganch, Nukus, Andijon, Samarqand shaharlarida lazer nuri va ultratovush yordamida turli ko'z kasalliklarini kompyuter texnologiyalari asosida diagnostika qilish va davolash ishlari amalga oshirilmoqda.

Oddiy odamning tili ba'zan aytishga ham qiynaladigan bunday diagnostika, davolash usullari haqida gapirganda, shunga alohida to'xtalib, urg'u berib aytmoqchimanki, bunday operatsiyalar ilgari O'zbekistonda qilinmas edi. Puli bor odamlar dardiga davo izlab Germaniyaga yoki boshqa xorijiy davlatlarga borardi. Bunda uzoq yo'l bosishning azob-uqubatlari, chet elda yurishning qiyinchiliklari haqida gapirishning hojati yo'q. Lekin faqat oylik hisobidan yashaydigan oddiy odam bunday vaziyatda qayoqqa borardi? Dardini kimga aytardi?

Jondan aziz bolasi og'ir kasalga duchor bo'lib, qayoqqa borishini bilmasdan yurgan ota-onalarni o'zimizga bir tasavvur qilib ko'raylik. Avvalo, hammamiz sog'-omon

bo'laylik, har xil balo-qazolardan o'zi asrasin. Lekin og'ir ahvolga tushib qolgan yurtdoshlarimizning taqdirini o'zimizga tasavvur qilishimiz bizning burchimizdir. Chunki biz yagona xalqmiz.

Shu nuqtayi nazardan qaraganda, bugungi kunda turli kasalliklarni davolash bo'yicha barcha tayyorgarliklarni ko'rib, diagnostika va davolashning mutlaqo yangi usul va uslublarni, eng zamonaviy tibbiy texnologiya, texnikani amaliyotga joriy etayotgan, bemorlarimizni davolashda yuksak mahorat va malakasi bilan jonbozlik ko'rsatayotgan shifokorlarimizga barcha-barchamizning nomimizdan minnatdorlik bildirishni ham farz, ham qarz, deb bilaman.

Bunday shifokorlarimizning soni qancha ko'p bo'lsa, ular omon bo'lsa, qo'li dard ko'rmasa, biz shuncha xursand bo'lamiz va kerak bo'lsa, ertangi kunga ishonchimiz yanada ortadi. Chunki inson salomatligini hech narsa bilan o'lchab, baholab bo'lmaydi.

O'zbekistonda sog'liqni saqlash sohasi bugun ancha o'sib, rivojlanib boryapti. Biz bu sohani yanada rivojlantirish uchun mablag'ni ham, xorijiy valyutani ham ayamaymiz, barcha imkoniyatlarimizni safarbar etamiz.

2013-yilda ta'lim-tarbiya tizimini yangi bosqichga ko'tarish maqsadida ancha tadbirlar amalga oshirildi.

Mamlakatimizda 756 ta ta'lim maskani, musiqa va san'at maktablari, bolalar sporti obyektlari yangitdan qurildi, rekonstruksiya qilindi va kapital ta'mirlandi. Zamonaviy kompyuter sinflari, o'quv laboratoriyalari, ustaxonalar tashkil etilib, zarur asbob-uskunalar bilan jihozlandi.

Ma'lumki, shu yildan e'tiboran mamlakatimizda xorijiy tillarni o'qitish tizimini yanada takomillashtirish dasturi doirasida umumta'lim maktablarining 1-sinfidan boshlab

xorijiy tillarni chuqur o'rganish yo'lga qo'yildi. Bu esa, albatta, farzandlarimizning jahon ilm-fani va madaniyati yutuqlarini egallashi, yetuk va malakali kadrlar bo'lib yetishishi uchun yangi imkoniyatlar ochib berishi bilan, ayniqsa, muhimdir.

Shu fursatdan foydalanib, mana shu zalda o'tirgan siz, azizlarga, butun xalqimizga murojaat qilib so'ramoqchiman: bolalarimizga chet tilini o'rgatishga mana shunday jiddiy kirishganimiz, qani, ayting, bizning kelajagimizga, o'z oldimizga qo'ygan buyuk maqsadlarimizga javob beradimi, yo'qmi?

Hozirgi vaqtda el-yurtimiz, hatto uzoq va chekka qishloqlarda yashaydigan keksalarimiz ham bu ishning ahamiyatini yaxshi tushunib, ey, bizning bolalarimiz ham, mana, yangitdan dunyoga chiqmoqda, deb duo qilib yuribdi. Men aytmoqchimanki, bu yil boshlagan ishimizning ta'sirini bugun emas, ertaga emas, besh yil, o'n yildan keyin ko'ramiz. Nasib etsa, hammamiz sog'-salomat bo'lsak, mana shu zalda uchrashib, boshqacha gaplashamiz, chet tilida gaplashamiz.

Joriy yilda 300 mingga yaqin bola, jumladan, Orolbo'yi hududidan 4 ming 500 nafar o'quvchi hamda kam ta'minlangan oilalarga mansub 75 ming nafar bolaning yozgi oromgohlarda imtiyozli dam olishi tashkil etilib, ularning salomatligi mustahkamlandi.

Yildan yilga kuchayib borayotgan bunday amaliy ishlarimizning tabiiy mahsuli va natijasini yurtdoshlarimiz, avvalambor, jondan aziz farzandlarimizning turli sohalarda qo'lga kiritayotgan yutuqlarida ko'rishimiz mumkin.

Bu borada ba'zi bir misollarga to'xtaladigan bo'lsak, Toshkent shahrida o'tkazilgan 47-xalqaro Mendeleyev



olimpiadasida yurtimiz o'quvchilari birinchi o'rinni egallagani hammamizga mamnuniyat yetkazadi.

Aql-zakovat musobaqasi bo'lmish shaxmat bo'yicha jahon chempioni unvoniga erishgan 8 yashar Nodirbek Abdusattorovni olasizmi yoki 5 yashar – e'tibor bering, 5 yashar – jajji o'g'lonimiz Islombek Sindorovning Osiyo chempioni degan sharaflı nomga sazovor bo'lganini olasizmi, qani ayting, aziz do'stlar, bunday yutuqlar bilan faxrlanmasdan, g'ururlanmasdan bo'ladimi?

Mana, yaqinda Polshada o'tkazilgan jahon chempionatida yana bir mohir sportchimiz – Ruslan Nurudinov sportning eng murakkab turi bo'lgan og'ir atletika bo'yicha keskin bellashuvlarda g'oliblikni qo'lga kiritdi. Xabaringiz bor, bu pahlavon yigit «O'zbekiston iftixori» degan yuksak unvon bilan taqdirlandi.

Vatanimizning shon-u shuhratini butun dunyoga tarannum etayotgan, saflari tobora kengayib borayotgan bunday farzandlarimizni har qancha qo'llab-quvvatlasak, har qancha e'zozlasak, arziydi, albatta.

«Obod turmush yili» deb nom olgan yilda qilgan katta ishlarimiz qatorida yangi uy-joylar barpo etish alohida o'rin tutadi.

Bu haqda gapirganda, 147 ta tumanda 10 mingta namunaviy uy-joy barpo etilgani va buning uchun aholiga 1 trillion 400 milliard so'mlik uzoq muddatli va imtiyozli kreditlar ajratilganini ta'kidlash kerak.

Bizning bu ishlarimiz nafaqat yon-atrofimizda, balki jahon hamjamiyatida ham katta qiziqish uyg'otmoqda. Joriy yilning aprel oyida ayni shu masala bo'yicha, shuningdek, noyabr oyida quyosh energiyasidan foydalanishga bag'ishlab Toshkent shahrida o'tkazilgan xalqaro anjumanlarda

ishtirok etgan dunyodagi yetakchi mamlakatlar va nufuzli xalqaro tashkilotlarning vakillari ana shunday uy-joylar, infratuzilma obyektlari bilan tanishib, bu ishlarga yuqori baho berganidan xabaringiz bor, albatta.

Fursatdan foydalanib, bunday go'zal va shinam uy-joylarni bunyod etayotgan quruvchilarimizga, bizni bu masalada qo'llab-quvvatlab kelayotgan Osiyo taraqqiyot banki, Islom taraqqiyot banki kabi xalqaro moliya institutlariga xalqimiz nomidan har qancha minnatdorlik bildirsak, ayni muddao bo'lur edi.

Qadrli do'stlar!

Hozirgi vaqtda butun O'zbekistonimiz, ta'bir joiz bo'lsa, ulkan qurilish maydoniga aylangan. Xususan, viloyatlar markazlarini bosh reja asosida rivojlantirish maqsadida yirik loyihalar amalga oshirilmoqda.

Misol tariqasida 2013-yilning o'zida birgina Urganch shahrida 344 milliard so'mlik qurilish va obodonlashtirish ishlari bajarilganini aytish o'rinlidir. Ana shunday katta hajmdagi ishlar Qarshi, Farg'ona, Namangan, Nukus, Jizzax, Shahrisabz, Guliston va boshqa shaharlarda, yurtimizning barcha viloyat va tumanlarida ham davom ettirilmoqda.

Yana bir muhim vazifamiz – aholini markazlashgan tarmoqlar orqali toza ichimlik suvi bilan ta'minlash masalasini oladigan bo'lsak, joriy yilda 213 milliard so'm mablag' hisobidan 1 ming 850 kilometr ga yaqin suv tarmog'i tortilib, 1 million 370 ming nafar aholining suv ta'minoti yaxshilandi.

E'tibor bering, bir yilning o'zida toza suvga muhtoj bo'lgan taxminan 1,5 million aholimizning shu boradagi ehtiyoji qondirildi.

Biz turli kasalliklar haqida gapiramiz. Lekin buning asosiy sababi nima, deb so'rasa, buning sababi birinchi navbatda suv emasmi? Ichadigan suv toza bo'lsa, odam boshqacha yashaydi. Shuning uchun ham bu masala biz uchun o'ta muhim vazifalardan biri bo'lib kelmoqda.

Shu bilan birga, Andijon, Buxoro, Navoiy, Surxondaryo, Farg'ona viloyatlarida, Samarqand, Buxoro, Termiz, Qo'qon shaharlarida ayni shu maqsadda 96 million dollar qiymatidagi 8 ta yirik investitsiya loyihasi amalga oshirilmoqda. Bu esa 365 ming aholi uchun ichimlik suvi ta'minotini, shuningdek, oqova suv tarmoqlarini yaxshilash imkonini beradi.

Yil davomida avtomobil yo'llarini qurish va rekonstruksiya qilish, transport infratuzilmasini rivojlantirish bo'yicha ulkan ishlar bajarildi.

O'zbek milliy avtomagistralining 530 kilometrlik qismida qurilish va rekonstruksiya ishlari olib borildi. Bundan tashqari, qishloq aholi punktlarini bog'laydigan 890 kilometrdan ziyod ichki yo'llar va 200 kilometrdan ortiq shahar va posyolka ko'chalari ta'mirlandi.

Keyingi vaqtda mamlakatimizda keng va ravon yo'llar qurish bilan bir qatorda yo'lovchilarga transport xizmati ko'rsatishni yaxshilash maqsadida ham ko'p ishlar qilinmoqda.

Azim poytaxtimiz Toshkentda va boshqa shaharlari-mizda o'zimizda ishlab chiqarilgan, ko'zni quvontiradigan avtobuslar va yengil mashinalar bilan birga, eng zamonaviy «Mercedes» avtobuslari qatnayotganini, ko'cha va maydonlarimiz qiyofasini butunlay o'zgartirayotgan bunday manzarani ko'rib, har qanday odam ta'sirlanmasdan qolmaydi, desam, mubolag'a bo'lmaydi.

Bizning odatimiz shundayki, yaxshilikka, yangilikka tez o'rganib qolamiz. Bundan 15–20 yil oldin mana shu Toshkent bo'ladimi, boshqa shaharlarimiz bo'ladimi, bugungi zamonaviy «Mercedes»lar, yengil avtomobillar qatnashini faraz qilishning o'zi qiyin edi. Biz endi bu manzarani xuddiki doimo shunday bo'lib kelgandek tasavvur qilamiz. Mayli, yaxshilikka o'rganganimiz yaxshi. Lekin shu yaxshilikni yanada ko'paytirish, uni asrab-avaylab, qo'ldan bermaslik haqida ham o'ylashimiz lozim.

Shu o'rinda bir raqamga alohida e'tiboringizni qaratmoqchiman. Ayni zikr etilgan tadbirlarning barchasini amalga oshirish uchun ichki investitsiyalar bilan birga, Jahon banki, Osiyo taraqqiyot banki va Islom taraqqiyot bankining 3 milliard dollardan ortiq mablag'ini yo'naltirganimizning o'zi, o'ylaymanki, ko'p narsadan dalolat beradi.

Dastur doirasida jamiyatimizning asosiy bo'g'ini bo'lgan mahallani obod qilish vazifasidan kelib chiqqan holda, o'zini o'zi boshqarish tizimi yanada takomillashtirildi, mahallaning ijtimoiy-iqtisodiy hayotimizdagi o'rni va ta'sirini kuchaytirishga katta ahamiyat berildi.

Avvalo, ana shu maqsadda ikkita muhim Qonun qabul qilindi. Jumladan, «Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida»gi Qonunning yangi tahririda ushbu tuzilma faoliyatining tashkiliy asoslarini takomillashtirish, aholini ijtimoiy muhofaza qilish bo'yicha uning vakolat va vazifalari yanada kengaytirildi.

Xabaringiz bor, shu kunlarda mamlakatimizning barcha hududlarida fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) va uning maslahatchilari saylovi davom etmoqda. Bu saylovning

ayni shu borada yangi tahrirda qabul qilingan qonun asosida o'tkazilayotgani, ayniqsa, e'tiborlidir.

Joriy yilda mahallalar hududida yangi guzarlar, savdo va maishiy xizmat ko'rsatish shoxobchalari, bolalar va sport maydonchalari barpo etish, ichki yo'llar va yo'laklarni ta'mirlash, ko'p qavatli uylarning atrofini obodonlashtirish bo'yicha katta hajmdagi ishlar amalga oshirildi.

Aziz yurtdoshlar!

Hammamizga ayonki, obod turmushni hayotimizning fayz-u farishtasi bo'lmish muhtarama ayollarimizning oila va jamiyatdagi faol ishtirokisiz tasavvur etib bo'lmaydi.

Biz odatda opa-singillarimizning turli sohalar rivojiga qo'shayotgan katta hissasini tan olish, ularning hayotimizdagi o'rni va rolini oshirish, ham siyosiy, ham ijtimoiy nufuzini ko'tarish, og'irini yengil qilish haqida ko'p gapiramiz. Lekin men, shu fursatdan foydalanib, bu masalaning boshqa tomoniga e'tibor qaratishni istardim.

Qachon oila baxtli bo'ladi? Qachonki, ayol baxtli bo'lsa.

Qachon ayol baxtli bo'ladi? Avvalambor, uning bolalari, oila a'zolari, turmush o'rtog'i sog'-omon bo'lsa.

Qachon ayol hayotdan rozi bo'ladi? Qachonki, oilasi tinch, ro'zg'ori farovon bo'lsa, ertangi kundan ko'ngli to'q bo'lsa.

Oilaviy turmushda, bir qaraganda, ko'zga tashlanmaydigan, lekin shunday muhim yumushlar borki – bu kir yuvish yoki ovqat pishirish bo'ladimi, bola tarbiyasi bo'ladimi, umuman, uyni saranjom-sarishta tutish bo'ladimi – bunday ro'zg'or tashvishlarini faqat ayol zoti bajara oladi.

Hammamiz yaxshi bilamiz, hayot tashvishsiz bo'lmaydi, albatta, lekin shu tashvishlar kamroq bo'lsa, yengilroq

bo'lsa, ana shunda ayollarimiz yanada go'zal va chiroyli bo'ladi, bizdan yanada ko'proq rozi bo'ladi.

Men agar qaysi bir chiqishimda ayollar haqida gapirmasam, bamisoli bir narsamni yo'qotgandek bo'lamen. Men bu gaplarni avvalo unib-o'sib, hayotga kirayotgan bolalarimiz uchun aytyapman. Bu shunchaki so'zlar emas, chuqur o'ylangan, teran ma'noga ega bo'lgan gaplardir.

Nima uchun Prezident ayollarni asrab-avaylash, ularni hayotdan rozi qilish haqida ko'p gapiradi? Nima uchun bu haqda gapirishdan charchamaydi? Nega deganda, agar biz hayotimiz yanada yorug', obod va farovon bo'lishini istasak, avvalambor ayol zotini ardoqlashimiz, uni e'zozlab boshimizga ko'tarishimiz zarur. Opa-singillarimiz bilan doimo faxrlanib yashashimiz kerak.

Biz iqtisodiyotimiz baquvvat bo'lib, imkoniyatlarimiz kengayib borishi bilan, ayollarimizning og'irini yengil qilish masalasiga tobora katta e'tibor bermoqdamiz. Jumladan, joriy yilda ham bu yo'lda ko'pgina ishlarni amalga oshirdik.

Mamlakatimiz korxonalari tomonidan 310 mingga yaqin oshxona va uy-ro'zg'or ashyolari ishlab chiqarilib, 130 million so'mlik ana shunday buyumlar ehtiyojmand oilalarga bepul tarqatilgani bunga misol bo'la oladi.

Ayni vaqtda mahallalar, turarjoy mavzellarida yangi yangi xizmat ko'rsatish shoxobchalari, non yopadigan, konditer mahsulotlari tayyorlaydigan sexlar, bozor chalar va savdo do'konlari, bolalar maydonchalari, oilaviy dam olish maskanlari, go'zallik salonlari barpo etildi.

Esimda, bir yili Farg'onada aholi bilan, faollar bilan uchrashganimda, go'zallik salonlari haqida maslahatlar bergan edim. Shunday bo'ldiki, Farg'ona viloyati xotin-

qizlar faollari bunday tashabbuslarni qo'llab-quvvatlab, ayni shunday salonlarni quramiz, ayollarimizning yanada go'zal bo'lishiga hissa qo'shamiz, deb amaliy harakatni boshlab yuborishdi.

Shu fursatdan foydalanib, barcha bo'g'indagi katta-kichik rahbarlarga qarata aytmoqchiman: qishloqlarda, tuman markazlarida mana shunday salonlarni ko'paytiring. Bu katta mablag' talab qilmaydi-ku. Agar bu gapimni Prezidentning iltimosi, deb qabul qilsangiz, men qarshi emasman.

Opa-singillarimizga qulay sharoit yaratishga qaratilgan ishlarimizni kelgusida albatta davom ettiramiz va buning uchun mablag' ham, imkoniyat ham topamiz.

Buning yaqqol tasdig'i sifatida ayollarni tadbirkorlikka keng jalb qilish va ularni qo'llab-quvvatlash maqsadida 2013-yilda tijorat banklari tomonidan 117 milliard so'mdan ziyod kredit mablag'i ajratilganini aytish zarur. Bu esa, o'z navbatida, qancha-qancha xotin-qizlarga o'z ishini ochib, oilasi, el-yurtimiz uchun foyda keltirish, hayotdan o'z o'rmini topish imkonini berayotganini alohida ta'kidlash darkor.

Muhtaram do'stlar!

«Obod turmush yili»da bajargan ishlarimiz haqida albatta uzoq gapirish mumkin. Men bu o'rinda diqqat-e'tiboringizni faqatgina bitta ko'rsatkichga qaratishni lozim, deb hisoblayman.

Dastur doirasida barcha manbalar hisobidan 6 trillion 930 milliard so'm hamda 471 million dollardan ortiq mablag' sarflanganining o'zi amalga oshirgan ishlarimizning hajmi va ko'lami qanchalar keng va ulkan ekanidan yaqqol dalolat beradi.

Fursatdan foydalanib, mana shunday oliyjanob va savobli ishga o‘z hissasini qo‘shgan yurtimizdagi davlat va nodavlat tashkilotlariga, fermerlik va tadbirkorlik subyektlariga, bizga ko‘mak bergan xorijiy va xalqaro tuzilmalarga, mana shu zalda o‘tirgan chet mamlakatlarning elchilari va diplomatik vakolatxonalar vakillariga, shu ezgu yo‘lda sidqidildan xizmat qilgan barcha insonlarga o‘z nomimdan, xalqimiz nomidan samimiy minnatdorlik bildiraman.

Hurmatli anjuman ishtirokchilari!

Endi sizlar bilan kirib kelayotgan yangi – 2014-yilga qanday nom berish haqida maslahatlashib, fikrlashib olishimiz kerak.

Azal-azaldan har qaysi ota-ona o‘z bolasining sog‘lom va barkamol, aql-zakovatli, baxtli bo‘lishini istaydi. Shunday farzandni voyaga yetkazish, uning hayotda munosib o‘rin egallashiga erishish, shu borada ularga ko‘maklashish – ota-onaning eng ulug‘, eng muqaddas orzusi, desak, ayni haqiqatni aytgan bo‘lamiz.

Biz sog‘lom deganda, nafaqat jismoniy, balki ma‘naviy jihatdan ham sog‘lom bolani o‘zimizga tasavvur etamiz.

Mustaqillikning birinchi yillaridan boshlab yurtimizda sog‘lom ona – sog‘lom bola masalasi davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishiga aylangani, keng ko‘lamli umummilliy dasturlarimiz doirasida amalga oshirayotgan ulkan ishlarimiz jahon miqyosida ham tan olingani sizlarga yaxshi ma‘lum.

Ayni vaqtda bugungi shiddatli zamon, hayotning o‘zi yosh avlod tarbiyasi borasida oldimizga yangi-yangi, o‘ta muhim va dolzarb vazifalarni qo‘ymoqda.

**Ana shularning barchasini hisobga olgan holda, har tomonlama sog‘lom avlodni voyaga yetkazish**



**borasidagi ishlarimizni izchil davom ettirish va yuksak bosqichga ko'tarish maqsadida men kirib kelayotgan yangi – 2014-yilni mamlakatimizda «Sog'lom bola yili» deb e'lon qilishni taklif etaman.**

**Qadrli vatandoshlar!**

Sog'lom bolaning dunyoga kelishi, baquvvat bo'lib o'sib-ulg'ayishi ko'pgina talab va omillarga bog'liq ekanini hammamiz yaxshi tushunamiz. Lekin ular orasida shunday o'ta muhim, hal qiluvchi mezonlar borki, bu haqda alohida to'xtalishni o'rinli, deb bilaman.

**Birinchidan, sog'lom bola – avvalo, sog'lom va ahil oilaning mevasidir.**

Biz oilani hayot davomiyligini ta'minlaydigan, kelajak nasllar taqdiriga kuchli ta'sir ko'rsatadigan tarbiya maskani sifatida qabul qilamiz. Kattalarga hurmat, kichiklarga izzat, odamiylik, mehr-oqibat, o'z Vatani, xalqiga sadoqatli bo'lish kabi oliyjanob fazilatlar aynan oila muhitida shakllanadi.

Tabiiyki, sog'lom bolaning tug'ilishi, birinchi navbatda, onaning sog'lig'iga bog'liq. Bo'lg'usi ona ilohiy ne'mat bo'lmish dilbandini to'qqiz oy mobaynida o'z bag'rida asrab-avaylab, yorug' dunyoga keltiradi. Ana shu jarayonda ayol qanday kunlarni, qanday ruhiy holatni boshidan kechirsa, bu albatta ona vujudi orqali homilaga ta'sir o'tkazadi.

**Ayolni qadrlash, og'ir ishlardan xalos etish, turli kasalliklardan himoya qilish – er kishining, butun jamiyatimizning burchidir.** Bu haqiqat quruq gapga aylanib qolmasligi uchun barchamiz javobgarlikni sezishimiz, uni amaliy ishlarimizda namoyon qilishimiz darkor.

Bundan xulosa shuki, «Sogʻlom bola yili» Davlat dasturini ishlab chiqishda, birinchi navbatda, onalik va bolalikni himoya qilish, oilalarda sogʻlom muhitni kuchaytirish, ularning iqtisodiy va maʼnaviy asoslarini mustahkamlash kabi masalalar eʼtiborimiz markaziga qoʻyilishi zarur.

**Ikkinchidan, sogʻlom bolani voyaga yetkazishda sogʻliqni saqlash tizimining oʻrni va taʼsiri, shu bilan birga, masʼuliyati katta ekani hammamizga yaxshi ayon.**

Dasturda onalar va bolalar salomatligini asrashga xizmat qiladigan tibbiyot muassasalari, bu – skrining va perinatal markazlari boʻladimi, ayollar tibbiy konsultatsiyalari, tugʻuruqxona komplekslari boʻladimi, ginekologiya va patronaj xizmatlari, qishloq vrachlik punktlari boʻladimi – ularning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, zamonaviy asbob-uskunalar, malakali kadrlar bilan taʼminlash borasidagi ishlarimizni kuchaytirish oʻz ifodasini topishi kerak.

Jahon sogʻliqni saqlash tashkilotining tavsiyalarini inobatga olgan holda, homilador ayollar va goʻdaklarning oʻz vaqtida va sifatli ovqatlanishi, ular uchun maxsus polivitaminlar, zarur mikroelementlar bilan boyitilgan mahsulotlar ishlab chiqarish, bolalarni doimiy tibbiy koʻrikdan oʻtkazish, turli kasalliklardan asrab-avaylash kabi tadbirlarning samarasini yanada oshirish lozim.

**Barchamiz yaxshi tushunamizki, sogʻlom farzandni tarbiyalashda aholi, ayniqsa, ota-onalarning tibbiy madaniyati muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli dasturni shakllantirishda tibbiy madaniyatni oshirishga**

qaratilgan keng ko‘lamli tushuntirish ishlariga alohida o‘rin berish ayni muddao bo‘ladi.

Ma‘lumki, mamlakatimizda bo‘lg‘usi kelin-kuyovlarni nikohdan oldin tibbiy ko‘rikdan o‘tkazish tartibi joriy etilgan bo‘lib, bundan ko‘zlangan asosiy maqsad sog‘lom oila qurish, sog‘lom bolani dunyoga keltirish bilan bog‘liq. Lekin, afsuski, insonning hayoti, tug‘ilajak farzandning taqdiriga bevosita daxldor bu masalaga ba‘zan mas‘uliyatsizlik bilan qarash, soxta va yuzaki xulosalar chiqarish, tibbiy ma‘lumotnomalarni sotib olish kabi holatlar uchrab turishi barchamizni tashvishga solishi zarur. Ayni shu masalalar uchun, umuman, bolalarning sog‘lom, benuqson bo‘lib tug‘ilishi uchun tibbiyot xodimlarining mas‘uliyatini, kerak bo‘lsa, javobgarligini oshirish vaqti keldi, deb o‘ylayman.

Haqiqatan ham, bir odamning o‘z ishiga yuzaki munosabati tufayli qancha-qancha oilalar umrining oxirigacha azob chekadi. Shu nuqtayi nazardan, bu masalaga nihoyatda jiddiy qarashimiz kerak.

**Uchinchidan, sog‘lom bolani voyaga yetkazishda ta‘lim-tarbiya va sportning o‘rni va ta‘sirini yanada kuchaytirish lozim.**

Dasturda maktabgacha ta‘lim muassasalari tizimini kengaytirish, ularni zamonaviy jihozlash, yuqori malakali pedagog va murabbiylar bilan ta‘minlash, bolalarni maktabga tayyorlashning sifatini oshirish masalalariga alohida e‘tibor qaratish darkor.

Bolaning jismoniy va psixologik rivojlanishidagi eng asosiy davr – bu boshlang‘ich sinf davridir. Hammamiz bilamizki, sobiq tuzum sharoitida bu masalaga, afsuski,

yetarlicha ahamiyat berilmas edi. Quyi sinflarda dars berish, asosan, o'rtta maxsus ma'lumotga ega bo'lgan muallimlarga topshirib qo'yilgan edi.

Boshlang'ich ta'limning yosh avlod hayotidagi roli va ahamiyatini hisobga olgan holda, bunday nomaqbul holatga butunlay barham berildi va bu vazifani bugungi kunda oliy ma'lumotli, yuksak professional mahoratga ega bo'lgan pedagog kadrlar bajarmoqda.

Qabul qilinadigan dasturda boshlang'ich ta'limning sifatini oshirish, ta'lim standartlari, o'quv dasturlari, darslik va qo'llanmalarni takomillashtirish, ilg'or pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish masalalari o'z ifodasini topishi kerak.

Ayni paytda, «Sog'lom bola yili»ning maqsad va vazifalaridan kelib chiqqan holda, farzandlarimizda, ayniqsa, qiz bolalar o'rtasida jismoniy tarbiya va sportga mehr uyg'otish, sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish bo'yicha aniq tadbirlarni belgilab, amalga oshirishimiz lozim.

**To'rtinchidan**, hammamizga ayonki, farzandlarimizni, yangi avlodni sog'lom va barkamol qilib voyaga yetkazish, bu maqsadga erishish, hech shubhasiz, davlatimiz, jamiyatimizning e'tibor markazida turishi, olib borayotgan siyosatimizning ustuvor yo'nalishi bo'lib qolishi shart.

Shu maqsadda bu masalaga daxldor va mutasaddi bo'lgan qaysi soha, qaysi jarayonni olmaylik, ularning barchasini rivojlantirish, yangi, zamonaviy bosqichga ko'tarishda davlatning roli katta ekani hech kimga sir emas.

Shuni hisobga olgan holda, «Sog'lom bola yili» dasturi tarkibida, avvalo, yillik rejalarni belgilab olib, turli soha va tarmoqlar, ayniqsa, ijtimoiy sohalarga taalluqli masalalarni

yechish uchun ajratiladigan mablag' bo'ladimi, bugungi kunda zamonning o'zi talab qilayotgan sharoitlarni tug'dirib berish bo'ladimi – bularning barchasiga e'tiborni yanada kuchaytirishimiz zarurligi o'z-o'zidan ravshan, albatta.

Shu bilan birga, bu masala bo'yicha jahon miqyosidagi ilg'or, taraqqiy topgan davlatlarning tajribasini o'rganish va yurtimizda joriy etish alohida ahamiyat kasb etadi.

**Beshinchidan**, sog'lom bola tarbiyasida mahalla va ijtimoiy tuzilmalarning katta o'rni va ta'siri borligi haqida, o'ylaymanki, ortiqcha gapirishning hojati yo'q. Xalqimizning «Bir bolaga yetti mahalla ham ota, ham ona» degan maqolida albatta chuqur ma'no mujassam.

Shu nuqtayi nazardan qaraganda, mahalla oqsoqollari, diniy ma'rifat va ma'naviy-axloqiy tarbiya masalalari bo'yicha maslahatchilar, mahalla posbonlarining jamiyatimiz hayotida tinchlik va osoyishtalik, o'zaro hurmat va hamjihatlik, hushyorlik va ogohlik muhitini mustahkamlashdagi mas'uliyati yanada ortadi.

Ayniqsa, qiz bolalarni tarbiyalash, ularning zamonaviy bilim va kasb-hunarlarni egallashiga yordam berish, erta nikohlarning, oilaviy nizolarning oldini olish, urf-odat va marosimlarni ixcham va tartibli o'tkazish kabi vazifalarni hal qilishda biz ko'pni ko'rgan, tajribali mahalla faollariga tayanamiz.

Shaxsan men ulardan ko'p narsa kutaman. Nega deganda, mening eng katta maslahatchim, tayanchim va suyanchim – mahalla, desam, hech qanday xato bo'lmaydi.

O'g'il-qizlarimizni turli to'garaklarga jalb etish, kam ta'minlangan oilalarga moddiy va ma'naviy yordam ko'rsatish, o'z hududida tadbirkorlikni rivojlantirish

va yana boshqa masalalar bo'yicha mahalla faoliyatini kuchaytirish, ularga yangi vakolat va imkoniyatlar berish lozim.

O'z-o'zidan ravshanki, yuqorida bayon etilgan barcha ustuvor vazifalarni amalga oshirish uchun mavjud normativ-huquqiy bazani yanada takomillashtirish talab etiladi.

**Qadrlı va muhtaram vatandoshlar!**

**«Sog'lom bola yili»ning asosiy maqsad va vazifalari haqida gapirar ekanmiz, xalqimiz o'rtasida keng tarqalgan «Farzandlari sog'lom yurt qudratli bo'lur, qudratli elning farzandlari sog'lom bo'lur» degan hikmatli iborani yana bir bor esga olishimiz o'rinli bo'ladi, deb o'ylayman.**

Bizning mana shu qisqa – yigirma ikki yillik yangi tariximizda mustaqillikka erishish, milliy davlatchiligimiz, ertangi kunimizni qurishda, yurtimizni turli balo-qazolardan asrashda, O'zbekistonimizning rivojlangan demokratik davlatlar qatoriga kirishi, jahon maydonida munosib obro' topishida eng asosiy omillar nima deb so'rasa, men, boshqa mezonlarni inkor etmagan holda, bir fikrni alohida ta'kidlab aytgan bo'lardim: bu yo'ldagi eng muhim omil – bu ham jismoniy, ham ma'naviy jihatdan sog'lom, hech kimdan kam bo'lmasdan, boshini baland ko'tarib yashaydigan, Vatanimizning taqdiri va kelajagi uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olishga, xalqimiz intilayotgan kelajagi buyuk davlatni barpo etishga qodir bo'lgan barkamol avlodimiz, desam, ayni haqiqatni aytgan bo'laman.

Ana shu haqiqatni el-yurtimiz chuqur anglab, yuragidan, qalbidan o'tkazib, keng qo'llab-quvvatlayotgani bugungi kunda o'z hosili va natijasini berayotgani va buni butun

dunyo tan olayotgani, bizga havas bilan qarayotgani hech kimga sir emas.

**Biz tayanchimiz va suyanchimiz, g'ururimiz va iftixorimiz bo'lmish bolalarimizga, farzandlarimizga ishonch bilan, hurmat-e'tibor bilan qarashni kelajagimizga bo'lgan ishonch, millatimizga, xalqimizga bo'lgan hurmat-ehtirom ifodasi, deb bilamiz.**

Men ishonaman – bugun sizlar bilan birga belgilab olgan, «Sog'lom bola yili» dasturi degan nom bilan amalga oshiradigan barcha reja va vazifalarimiz ham ana shu ezgu maqsadga xizmat qiladi.

Siz, azizlarimni Konstitutsiya bayrami bilan yana bir bor tabriklab, barchangizga sihat-salomatlik, kuch-g'ayrat, xonadonlaringizga fayz-u baraka tilayman.

1000 nusxa.

**Karimov, Islom Abdug'aniyevich.**

K 25 Amalga oshirayotgan islohotlarimizni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyati qurish – yorug' kelajagimizning asosiy omilidir. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 21 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruza. 2013-yil 7-dekabr/ I.A. Karimov. – T.: «O'zbekiston», 2013. – 48-b.

ISBN 978-9943-01-993-5

UDK: 323.1(575.1)

KBK 66.3(50')

*Rasmiy nashr*

*Islom Abdug'aniyevich Karimov*

**AMALGA OSHIRAYOTGAN  
ISLOHOTLARIMIZNI  
YANADA CHUQURLASHTIRISH VA  
FUQAROLIK JAMIYATI QURISH –  
YORUG' KELAJAGIMIZNING  
ASOSIY OMILIDIR**

*O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining  
21 yilligiga bag'ishlangan tantanali  
marosimdagi ma'ruza*

*2013-yil 7-dekabr*

Nashr uchun mas'ul: *G. Azizova*

Badiiy muharrir *H. Mehmonov*

Texnik muharrir *T. Xaritonova*

Kichik muharrir *D. Xolmatova*

Musahhih *S. Salohutdinova*

Kompyuterda tayyorlovchi *L. Abkerimova*

Nashriyot litsenziyasi № 158. 14.08.09. Bosishga 2013-yil 13-dekabrda ruxsat etildi. Ofset qog'oz. Bichimi 60x90<sup>1/16</sup>.

«Tayms» garniturada ofset bosma usulida bosildi.

Shartli bosma tabog'i 3,0. Nashr tabog'i 2,44. Nusxasi 10000.

Buyurtma № 13-409.

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligining

«O'zbekiston» nashriyot-mathaa ijodiy uyi.

100129, Toshkent, Navoiy ko'chasi, 30.

e-mail: [uzbekistan@iptd-uzbekistan.uz](mailto:uzbekistan@iptd-uzbekistan.uz)

[www.iptd-uzbekistan.uz](http://www.iptd-uzbekistan.uz)